



KONSTITUTSIYANING MOHIYATI, DAVLAT VA JAMIYATNI BOSHQARISHDAGI O'RNI.

Sherjanova Dilnoza.

“TIQXMMI” milliy tadqiqot universiteti

“Ekologiya va huquq” fakulteti

Yurisprudensiya yo`nalishi 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18207603>

ARTICLE INFO

Received: 31st December 2025

Accepted: 1st January 2026

Published: 9th January 2026

KEYWORDS

ABSTRACT

Konstitutsiya bu asosiy qonun. Hozirgi kunda konstitutsiyasiz davlatni tasavvur qilish qiyin. Lekin ular ijtimoiy taraqqiyotning turli davri mahsulidir. Davlat konstitutsiya paydo bo'lgan davrdan anchagina ko'proq tarixiy davrlarni bosib o'tgan va har bir davrni oziga xosligi, muhiti va rivojlanish jarayoni bo'lgan. Shu tarzda «Konstitutsiya» vujudga kelgan.

Buni tarixdan bilib olganmiz. Konstitutsiya atamasi lotin tilidan olingan bo'lib «o'rnataman», «tuzaman» degan ma'noni anglatadi. Yuridik jihatdan «tuzilish» degan ma'noda ham ishlatiladi. Biz o'rganadigan konstitutsiyalar esa, davlatlarning asosiy qonuni sifatida qaraladi. «Davlat va Konstitutsiya» deganda, ularni faqat do'stlikda, hamkorlikda deb qarash uncha to'g'ri emas. «Davlat va Konstitutsiya» o'rtasida qarama-qarshilik bo'lishi ham tabiiydir. Lekin jamiyat mavjud qarama-qarshiliklarni hech qanday kuch ishlatmay hal qilish yo'lini topsa, bunday qarama-qarshiliklar xavfli bo'lmaydi.

Bizga ma'lumki konstitutsiya davlat shakllanishi jarayonida yuzaga kelgan. Konstitutsiya ilk marotaba Italiyada, Amerika davlatida, keyinchalik Fransiya davlatlarida qo'llanilgan.

O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin, o'zini asosiy qonunini ishlab chiqdi, chunki yangi davlat uchun yangi asosiy qonun kerak edi va birinchi prezidentimiz I.A.Karimov konstitutsiyani yaratish eng asosiy o'rinlardan biri ijtimoiy davlat sifatida Konstitutsiyani yaratish kerakligini aytganlar. Bunda aynan “ijtimoiy davlat” so'ziga nigoximizni qaratsak bu yangi davlat uchun poydevor bo'lib yaratildi va 1992 yil 8 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya 6 bo'lim, 26 bob, 128- moddalardan iborat bo'lib,. O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni. Konstitutsiyada fuqarolarning huquq va erkinliklari, davlatning iqtisodiy siyosati madaniy jarayonini mustahkamlashda, davlatda fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishda, davlat o'z zimmasiga olganligidir. Har qanday davlatda Konstitutsiya mustahkam bo'lmasa, uning kuchi ham mavqei ham bo'lmaydi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov qabul qilingan Konstitutsiyani ahamiyati haqida shunday deganlar "Hur O'zbekistonimiz tarixida birinchi Konstitutsiyani qabul qilish jumhuriyatimizning yangidan tug'ilishidir, haqiqiy mustaqillikimizga mustaxkam poydevor qilishdir. Qabul qilingan Konstitutsiya asosiy qonunimiz sifatida davlatni davlat qiladigan, millatni millat qiladigan qonunlarga asos bo'lishi muqarrardir. Bu Konstitutsiya o'zining tub mohiyati, falsafiy g'oyasiga ko'ra yangi hujjatdir. Unda kommunistik mafkura, sinfiylik, partiyaviylikdan asar ham yo'q. Jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i-inson degan fikrni ilgari surdik va shu asosida "fuqaro - jamiyat - davlat" o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning oqilona huquqiy echimini topishga intildik"-deb takidlagan edilar. Shunday ekan Konstitutsiya mamlakatimizda demokratik tamoyillarni amalga oshirishda, xalqni huquqiy ma'naviy va siyosiy jihatdan tarbiyalashda hamda

fuqarolarning erkin va farovon hayot kechirishida muxim o'rin tutmoqda. Konstitutsiya — davlatning oliy kuchga ega qonuni, u Asosiy qonun deb ham ataladi. Sababi, Konstitutsiya — davlatchilikning, qonuniylik va huquq-tartibotning asosi. Konstitutsiya, eng avvalo, yuridik hujjatdir. Konstitutsiya boshqa qonunlar kabi faqat yuridik hujjat sifatidagina namoyon bo'lmay, u siyosiy hujjat hamdir. Chunki Konstitutsiya jamiyatdagi siyosiy munosabatlarni ham tartibga solishga ta'sir etadi. Huquqiy davlatlar yoki shunday davlat qurayotgan mamlakatlar Konstitutsiyalari g'oyaviylikdan xolidir.

Shunday qilib, Konstitutsiya deganda, davlatning oliy yuridik kuchga ega asosiy qonuni tushuniladi. Bu qonun davlat tuzilishining asosiy prinsiplarini, shaxsning huquqiy holati asoslarini, hokimiyat organlari tizimi, tarkibi, tashkil bo'lish tartibi, vakolatlari, o'zaro munosabatlari, davlatning jamoa birlashmalari bilan munosabatlari asoslarini belgilovchi normalar yig'indisidan iborat bo'ladi. Konstitutsiya davlat funksiyasi doirasini, uning shaxs va jamiyat bilan aloqasi asoslarini o'rnatish bilan konstitutsiyaviy tuzum asoslarini belgilaydi.

Konstitutsiya mohiyatini mavjud tuzumda qo'lga kiritilgan yutuqlar, ularning fuqarolar manfaatiga qanchalik mosligi belgilaydi. Shu va Konstitutsiya bilan tartibga solish doirasi turli mamlakatlarda turlicha bo'ladi. Bundan tashqari, turli mamlakatlar rivojlanish taraqqiyoti va Konstitutsiya qabul qilinayotgandagi sharoitning har xilligi, xalqning ongi, dunyoqarashi, hatto, axloqidagi farqlar ham bu masalalar yuzasidan turlicha fikrlar bo'lishi tabiiy ekanligini ko'rsatadi. Konstitutsiya — davlatning oliy kuchga ega qonuni, u Asosiy qonun deb ham ataladi. Sababi, Konstitutsiya — davlatchilikning, qonuniylik va huquq-tartibotning, qonunchilikning asosi. Konstitutsiya, eng avvalo, yuridik hujjatdir. Uning shu xususiyatlari va sifatleri «Konstitutsiyaviy huquq» fanining predmetini tashkil etadi.

Totalitar tuzum va demokratik tuzumdagi davlatlarning konstitutsiyalari bir-biridan farq qiladi. Totalitar tuzum davlatlari konstitutsiyalarida davlat rahbarlari roli konstitutsiyaning o'zida ko'rsatil-yob va hukmron partiyaning g'oyaviy ko'rsatmalari ta'siri siyosiy tizimga to'la tatbiq qilinadi. Shu asosda ma'kura, g'oya asosiy qonun darajasiga ko'tariladi.

Demokratik jamiyatda esa, uning aksi o'zgaradi. Bu jamiyat hamma sohada davlat boshqaruviga, rahbarligiga muhtoj emas. Bu jamiyatda konstitutsiya davlatga jamiyatni himoyalash vazifasini yuklaydi. Bunday jamiyatdagi konstitutsiyalarda davlatning jamiyatni himoyalash, fuqaro mas'uliyatini himoyalash vazifasi aniq belgilab qo'yiladi.

Konstitutsiyalar muqaddima qismining mavjudligi bilan ham boshqa qonunlardan farq qiladi. Muqaddima tantanali — deklarativ xarakter-dagi qoidalardan iborat bo'lib, ular yuridik kuchga ega emas. Muqaddimada davlatning maqsad va vazifalari, davlatchilikda qabul qilinadigan, tanlanadigan qadriyatlar, kecha va kelajak avlod oldidagi mas'uliyatlari belgilanadi. Bu g'oyalar keyinchalik turli ko'rinishi va shakllarda konstitutsiya normalarida o'z aksini topadi. Shuning uchun ham, konstitutsiyalarga ta'rif berilganda, Konstitutsiyada qayd qilingan yutuqlarni, maqsad va vazifalarni belgilovchi muqaddima tantanali bayonot bo'lib qolmasdan, manba sifatida qaralishi hamdir, deb ta'riflanadi.

Asosiy Qonunimiz xalqimiz uzoq yillar orzu qilgan milliy mustaqilligimiz va rivojlanish yo'limiz, inson huquq va erkinliklari kafolatlarini belgilab berdi. To'la ishonch bilan aytish mumkin, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuqori namunamasidir.

Shunday qilib, Konstitutsiya deganda, davlatning oliy yuridik kuchga ega asosiy qonuni tushuniladi. Bu qonun davlat tuzilishining asosiy prinsiplarini, shaxsning huquqiy holati asoslarini, hokimiyat organlari tizimi, tarkibi, tashkil bo'lish tartibi, vakolatlari, o'zaro munosabatlari, davlatning jamoa birlashmalari bilan munosabatlari asoslarini belgilovchi normalar yig'indisidan iboratdir.

Ushbu maqoladan xulosa qilib shuni aytish mumkinki konstitutsiyani qabul qilinishini davrga bo'lsak, bir davr 1992-2016 yillarni qamrab olsa, yana bir davri 2017 yildan hozirgi kunga qadar bo'lgan davrlarga nazar salsak, bunda Konstitutsiyani takomillashishini va rivojlanishini ko'rishimiz mumkin. Bunda yangi tahrirdagi Konstitutsiya 2023 yil 30 aprel

kuni o`tkazilgan O`zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilindi.

Ya`ni “davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas`uldirlar” Konstitutsiyaning 2-moddasi. Shunday ekan Konstitutsiya inson manfaatlariga xizmat qilishi, ularning tinchligi va farovonligiga, hamda davlat va jamiyatning yuksalishiga xizmat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023
2. Husanov O.T. “Konstitutsiyaviy huquq” darslik.
3. I.A.Karimov. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas`ulmiz. T. “O`zbekiston”
4. SH.M.Mirziyoyev. Niyati ulug` xalqning ishi ham ulug`, hayoti yorug` va kelajagi farovon boladi. T “O`zbekiston” 2018

